



**MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BOLALARGA XORIJIY TILLARNI  
O'RGATISH METODIKASI**

**Iskandorova N**

*Ilmiy rahbar*

**Tirkasheva E**

*SamDCHTI talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda yurtimizda Maktabgacha ta'lif jarayonida xorijiy tillarni o'rganayotgan bolalarning psixologiyasi hamda ularga xorijiy tillarni o'qitishda interaktiv, zamonaviy metodlardan qanday qilib foydalanishni o'z ichiga qamrab oladi.

**Kalit so'zlari:** Maktabgacha ta'lif jarayoni, interaktiv dars, bolalar psixologiyasi, qiziqish, o'yin ta'lif tarbiya berish jarayoni, ta'limga e'tibor.

Kirish: Ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andazalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bu maktabgacha ta'lif jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." deb takidlab o'tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lif tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlantning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir.

"Dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini «top-toza paxtaga» o'xshatadi Djon Lokk. Uning fikricha, bolaning «top-toza paxta» tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo'lib yetishishi, ya'ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog'liqdir", deb ta'kidlaydi Angaliyalik olim Djon Lokk.

" Bola erkalatilsa, erkatoy bo'ladi, hadep ayblanaversa, o'zini aybdor deb biladi yoki u qadrlanmasa, qadrsizlik tug'usi bilan ulg'ayadi. E'tibor berilgan, qadrlangan bola esa aziz va qadrli bo'ladi. Bolaga basho berish unga ehson emas, balki inson sifatida uning tabiiy Haqqani hisoblanadi. Bir so'z bilan aytsam, kelajak

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



« Ha, endi, bola-da » deb be'etibor bo'limgan OTA-on va tarbiyachilar bolan dunyod bo'ladi " Adem Gunesh.

Bundan ko'rinish turibdiki bolalarga ta'llim tarbiya berish jarayoni juda ham ma'suliyatli vazifa bo'lib, agarda noto'g'ri ta'lif yoki tarbiya beriladigan bo'lsa, bolalaning psixologiyasiga hamda uning kelajagiga putur yetishi mumkin. Maktabgacha yosh davridagi bolalarga chet tillarni o'rgatish jarayonida esa avval ularning qiziqishlarini hamda psixologiyalarini inobatga olish lozim. Bunda ularga dars jarayonida ularning e'tborlarni jalg qila oladigan hamda ularning diqqatlarni ma'lum muddat boshlab turgan holda ularning Yoda qoldirish qobiliyatlarini rivojlantirish, darslarni interaktiv hamda ko'tarinki ruhda o'tishni talent etadi. Bunda avvalambor bugungi kunda ommabob bo'lgan zamonaviy texnologiyalar hamda interaktiv metodikalardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun bolalar bilan turli xildagi jamoaviy hamda individual o'yinlarni o'ynagan holda, yangi so'zlarni bola yodida qoldirish uchun turli xildagi she'rlar, topishmoqlar, tez aytishlar yodlatish va shuningdek ertaklar mutula qilib berish orgali ham ularning so'z boyligi, aqliy va nutq jarayonlarini yaxshilash mumkin. Maktabgacha yosh davrida bolalar turli xildagi yangi narsalarini avvalombor ko'rib, tatib va ushlab ko'rib o'rib o'rganganliklari bois darslada turli qiziqarli multfilmlar tomosha qilib, so'z yodlashda tomosha qilmagan multfilmlardagi so'zlarni voqealarni takroran aytib yoki interaktiv o'yinlarni turli yorqin hamda qiziqarli kartochlardan suiy meva yoki sabzavot maketlardan foydalanish bola uchun avvalo qiziq va esda qolarli bo'lismeni ta'minlaydi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki bola ongini to'g'ri hamda yaxshi rivojlanishida nafaqat tarbiyachilar balki ota-onalarning ham o'rni kattaligi, bola uyda bo'lganda ham unga xorijiy tilni o'rgatishga uni tarbiyasiga e'tiborli bo'lishi zarurligini ham yodda tutish zarur.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda bugungi kunda bolalarga ta'llim tarbiya berish jarayonida avvalo balolalarning psixologiyalarni ya'ni ularning qiziqish va ehtiyojlarini hamda ular uchun interaktiv bo'lgan o'yin hamda o'qish faoliyatlarini tashkil qilish ularning xorijiy tillarni yamada samarali va uzoq vaqt yodda qoldirishlariga, ularning aqliy va nutqiy rivojlanishlariga katta turtki beradi.

## FOYDANALILGAN ADABIYOTLAR:

1. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz)
2. [e-library.namdu.uz](http://e-library.namdu.uz) "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi"
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet -tili o'qitishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari